

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limni tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanofov Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING AMALIY METODIK TIZIMI****ПРАКТИКО-МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ****PRACTICAL AND METHODOLOGICAL SYSTEM FOR THE DEVELOPMENT OF
CONFLICT COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS****Kamoldinov Muhammadsodiq Baxtiyor o'g'li** 

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi, bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития конфликтологической компетентности у будущих педагогов, практическая методическая система развития конфликтологической компетентности у будущих педагогов, эффективность развития конфликтологической компетентности у будущих педагогов. Также проанализирована практико-методическая система развития конфликтологической компетентности у будущих педагогов.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of the development of conflictological competence in future teachers, the practical methodological system of developing conflictological competence in future teachers, the effectiveness of developing conflictological competence in future teachers. The practical methodological system of developing conflictological competence in future teachers is also analyzed.

Kalit so'zlar: konfliktologik kompetentlik, kompetentlik, pedagog, nazariy-metodologik asos, takomillashtirish, texnologik, model, metodik tizim, motivatsion-aksiologik, kognitiv, interfaol texnologiyalar.

Ключевые слова: конфликтологическая компетентность, компетентность, педагогическая, теоретико-методологическая основа, совершенствование, технологическая, модель, методическая система, мотивационно-аксиологические, когнитивные, интерактивные технологии.

Key words: conflictological competence, competence, pedagogical, theoretical and methodological basis, improvement, technological, model, methodological system, motivational and axiological, cognitive, interactive technologies.

KIRISH

Oliy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Pedagogik konfliktologiya" fani imkoniyatlari, uning ijtimoiy falsafa, ijtimoiy psixologiya va sotsiologiya fanlari bilan integratsiyasi asosida bo'lajak pedagoglarni ta'lim amaliyotida yuzaga keladigan nizolar mohiyatini to'g'ri anglash, ularni oqilona yo'naltirish hamda salbiy xarakterga ega nizolarni bartaraf etishga amaliy jihatdan tayyorlash demakdir. Ana shu maqsadga qaratilgan yo'naltiruvchi faoliyat bevosita "Pedagogik konfliktologiya" fanini o'qitish, hamda pedagogik amaliyot davrida tashkil etiladi. Biroq, talabalarda pedagogik nizolarni bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantirishda o'ziga xos murakkabliklarga duch kelinadi. Zero, talabalarning bo'lajak pedagog sifatida ma'lum mavzularni o'rganish vaqtida pedagogik jarayonda yuzaga keladigan nizolar mazmun-mohiyatini anglab olish, ularning xarakterini, rivojlanish darajasini baholash oliy ko'nikmalariga ega bo'lishlari oson emas. Qolaversa, pedagogik jarayonda vujudga kelgan nizolarni bartaraf etishda nazariy bilimlarga ega bo'lishning o'zigina kifoya qilmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi, bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshirishga oid masalalar J.Burton, F.Dukes, L.Coser, G.Mead, T.Gordon, K.Thomas, A.Eagly, A.Antsupov, A.Belkin, V.Juravlev, E.Kirshbaum, A.Lobanov, I.Marinovskaya, V.Tsvetkov, Sh.Abdullaeva, D.Ro'zieva, N.Azizxodjaeva, M.Axmedova, M.Davletshin, S.Jalilova, X.Ibragimov, X.Karimov, V.Karimova, D.Narziqulova, Z.Salieva, G.Tuychieva kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, pedagogik jarayonda yuzaga keluvchi nizolar mohiyati bilan yaqindan tanishish natijasida "Pedagogik konfliktologiya" fani asosida bo'lajak pedagoglarda nizolarni oqilona bartaraf etish ko'nikmalarini va oliy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etishga quyidagi omillarning ta'siri kuchli ekanligiga ishonch hosil qilindi:

1. Talabalarga berilayotgan o'quv materiallarining mazmuni.
2. Talabalarining ma'lumot darajasi.
3. Talabalarining amaliy ish tajribasi.
4. Vaqt hajmi.
5. Ta'limning kasbiy yo'nalganligi.

Muammoni tadqiq etish davrida "Pedagogik konfliktologiya" fani asosida bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish va oliy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat tamoyillarining aniqlanishiga ham e'tibor qaratildi. Nazariy tahlil va amaliy kuzatish natijasiga ko'ra quyidagi umumpedagogik tamoyillarning "Pedagogik konfliktologiya" fani asosida bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi:

1. Aniq maqsadga yo'naltirilganlik.
2. Izchillik, uzviylik va tizimlilik.
3. Dialektik va dinamik xarakterga egalik.
4. Tashkiliy-texnologik yondashuv.
5. Oqilona pedagogik boshqaruv.
6. Talabalar yosh xususiyatlarining inobatga olinganligi.
7. Nazariya va amaliyot birligi.

Shu bilan birga, tadqiqotni olib borishda "Pedagogik konfliktologiya" fani asosida bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan xususiy tamoyillar ham aniqlanadi. Ular: talaba-yoshlarning nizoli xulq-atvori sabablarini chuqur ochib berish va tarbiyaviy ishni maqsadga yo'naltirilgan tarzda loyihalashga imkon beruvchi diagnostik faoliyatning noxiziq harakatlanish tamoyili; talaba-yoshlarning tarbiyasi va nizoli xulq-atvoriga ta'sir etuvchi yaxlit omillar va shart-sharoitlarni hisobga olgan holda diagnostik faoliyatni tashkil etishning tizimlilik va yaxlitligi tamoyili; tadqiq etilayotgan hodisa va jarayonlar bo'yicha talaba-yoshlarning faoliyati tuzilmasini bir xil o'xshash sharoitlarda sinovdan o'tkazish, iyyunchli ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalar shahsg takrorlanishini kuzatishni talab etuvchi diagnostik metodlardan foydalanishning obyektivligi tamoyili; diagnostik vaziyat va shart-sharoitlarga bog'liq ravishda talaba-yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olishning ko'po'lchamli, ko'pdarajali va xilma-xil tarzda namoyon bo'lishini tavsiflashga xizmat qiladigan ko'ptomonlamalilik tamoyili; ma'lum vaqt va makonda amalga oshadigan o'quvchi-yoshlarning nizoli xulq - atvori sabablarini o'rganishni talab etuvchi dinamiklik tamoyili; talabani tarbiyasi va nizoli xulq-atvorini o'rganishga yaxlit yondashuvni amalga oshirish, pedagogik tashxis metodlarini tarbiya metodlariga aylantirishni talab etuvchi talaba-yoshlarning faoliyatini o'rganish va tarbiyalashning birligi tamoyili.

Bundan tashqari "Pedagogik konfliktologiya" fanining nazariy tahlili natijasida pedagogning diagnostik faoliyatini tashkil etishi bilan bog'liq quyidagi ma'naviy-axloqiy yondashuv shartlari ishlab chiqildi: pedagogik diagnostikani tashkil etish va o'tkazish jarayonida talaba shaxsi (salomatligi, ruhiy holati, ijtimoiy yo'nalganligi)ga zarar etkazadigan natijalarga olib kelishdan saqlanish (buning uchun talabalar diagnostikaning maqsadi, uning natijalarini aniqlashtirishda foydalaniladigan shakl va metodlar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari talabetiladi); talaba-

yoshlarning nizoli xulq-atvorini o'rganishda pedagogning kasbiy tayyorgarlik, layoqat va kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi (talaba-yoshlar bilan muloqot o'zaro ishonch va hurmatga asoslanishi, shu bilan birga qo'yilgan vazifalarni hal etish kamchiliklarsiz amalga oshirilishi lozim); talaba-yoshlar bilan o'tkazilgan tashxis natijalarining diagnostik jarayon ishtirokchilari tomonidan tarqatib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik (pedagog tomonidan qo'llaniladigan tashxis metodikalari standartlashgan va diagnostik maqsadlarga mos bo'lishi zarur); talaba-yoshlar bilan ishonchga asoslangan munosabat asosida olingan diagnostik materiallarning oshkor bo'lmasligiga erishish (buning uchun diagnostik materiallarga shartli belgilar qo'yilishi, undan foydalanish muddatlari belgilanishi lozim).

Bo'lajak pedagoglarning o'z zimmlariga yuklatilayotgan pedagogik talabning birdek anglanmasligi, bir-birlarining fikrlarini to'g'ri tushunmasliklari hamda shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yishlari kabi holatlar pedagogik nizoning kelib chiqishida ustuvor o'rin tutadi. Shuningdek, ta'lim muassasasi rahbari, pedagoglar hamda ota-onalar tomonidan talabaga xos bo'lgan yosh xususiyati, aqliy, jismoniy va fiziologik imkoniyatlarning inobatga olinmasligi, unga "hali voyaga etmagan shaxs" sifatida munosabatda bo'lish, o'spirinlarning o'zlarini kattalardek his qilishlari, turli yo'nalishlarda faoliyatni tashkil etishda mustaqillikka intilishlari, o'z kuch va imkoniyatlarini haddan tashqari yuqori baholashlari, pedagogik talab mohiyatini to'g'ri anglamagan holda ularni "adolatsiz talablar" deb hisoblashlari, ta'lim muassasasida o'rnatilgan tartibning tan olmasliklari, mazkur tartibga bo'ysunish go'yoki ularning erkinliklariga dahl qilayotgandek xayol qilishlari ham pedagogik nizolarning kelib chiqishini ta'minlovchi sabablar sifatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra ta'lim muassasalari amaliyoti bilan tanishish natijasida pedagogik nizolarning kelib chiqish negizi turlicha bo'lsa-da, asosiy sabablar quyidagilar ekanligi ma'lum bo'ladi: pedagogik talabni qo'yishda talabalarning yosh, psixologik, va shaxsiy imkoniyatlarining inobatga olinmasligi; pedagogik talabning talabalar imkoniyatiga mos emasligi; pedagogik talabning qo'yilishida barcha talabalarga birdek yondashilmaslik; pedagogik talabning qo'yilishida talabalarga individual yondashilmaslik; pedagoglarning talabaga nisbatan "adolatsiz" munosabatda bo'lishlari; pedagogik talabning talabalar xohish-istak, intilish va qiziqishlariga zid bo'lishi; pedagogik talabning qo'yilishida samimiylarning etishmasligi, aksincha, buyruq ohangida bayon etilishi; pedagogik talabning qo'yilishida talaba shaxsiga ishonch bildirilmaslik va h.o.

Nizoli vaziyatlarda uning ishtirokchilari turli darajadagi himoyalovchi xatti-harakatlardan foydalanadilar. Masalan: jismoniy yoki psixologik hujum (agressiya – u asosan nizoga kirishgan qarama-qarshi tomonga yo'naltiriladi); alamzadalik (o'zidagi kamchiliklar, etishmovchiliklarni boshqalarda, atrofdagilarning qiyofalarida ko'rish; bu ichki zo'riqishlardan holi bo'lishga yordam beradi); tasavvur qilish (fantaziya – amalda qila olmaydigan, uddalay olmaydigan xatti-harakatlarni xayolan bajarish; o'ylangan narsalarga tasavvurda ega bo'lish imkoniyatini yaratadi); jismoniy yoki psixologik zo'riqishlarga moslashish (maqsadlarning almashishining natijasida biror-bir narsaga qattiq bog'lanish darajasi pasayadi, biroq hujum-atvor motivlari avvalgidek saqlanib qoladi); maqsadlarning o'zgarishi (psixologik zo'riqishlar faoliyatning boshqa sohalariga yo'naltiriladi); yoqimsiz vaziyatlardan chetga chiqish (muvaffaqiyatsizlikka uchragani yoki topshiriqlarni bajara olmaganligi uchun inson ixtiyorsiz ravishda muammoli vaziyatdan qochadi).

XULOSA

Shunday qilib, pedagogik nizolar ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keluvchi hodisa bo'lib, uning mohiyati manfaatlar to'qnashuvini ifodalaydi. Muassasa rahbari, pedagogik va talabalar jamoalari hamda ota-onalarning ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillarini inobatga olmasliklari yoki ularga qat'iy rioya etmasliklari, har birlari o'zlarining manfaatlarini himoya qilishga urinishlari oqibatida pedagogik nizolar yuzaga keladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bir-birlarini o'zaro tushuna olishlari, qarshi tomonlar manfaatlarining himoya qilishga urinishlari, bir-birlariga yon berishlari, shuningdek, vujudga kelgan muammoni bosqich bilan hamkorlikda hal qilishga intilishlari har qanday pedagogik muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

7. Abdullaeva Sh.A., Ro'zieva D.I. Pedagogika diagnostika va korreksiya. T. "Universitet", 2019. -236 b.
8. Акимова Е.Е. Педагогические основы использования конфликта в образовательном конфликте: Автореф. дис. . канд. пед. наук. – Н. Новгород, 1999. – 22 с.

PEDAGOGIKA

9. Йўлдошев М., Назарзода Н. Раҳбарлик психологиясида ахлоқ. – Т.: —Шарқ» НМАК Бош таҳририяти, 2010. – 157 б
10. Кузина А.А. Воспитание конфликтологической компетентности старшеклассников. Автореферат дис. . канд. пед. наук. – М., 2007. – 176
11. Пилипег И.С. Подготовка учителей к разрешению межличностных конфликтов в среде старшеклассников: Автореф. дис. канд. пед. наук. —Самара, 1998. – 19 с
12. Шодиев И.Н. Бўлажак ўқитувчиларда конфликтологик компетентликни ривожлантириш: Пед. фанл. д-ри (PhD) ... Дисс. – Т., 2022. – Б. 45